

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 128 (917), 2023-yil 29-iyun, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON VA MISR YETAKCHILARI ERISHILGAN KELISHUVLARNING IJROSINI TA’MINLASH MUHIMLIGINI TA’KIDLADILAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdulfattoh as-Sisi 28-iyun kuni bo‘lib o‘tgan telefon orqali muloqotda butun musulmon ummati uchun muqaddas Qurbon hayiti bilan bir-birini samimiy qutladilar. O‘zbekiston va Misrning do‘st xalqlariga tinchlik-oso-yishtalik, farovonlik va ravnaq tilaklari bildirildi.

Joriy yilning fevral oyida Qohiraga oliy darajadagi rasmiy tashrif chog‘ida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Muntazam va samarali muloqotlar tufayli O‘zbekiston bilan Misr o‘rtasidagi keng qamrovli hamkorlik munosabatlari aniq mazmun bilan boyib borayotgani qayd etildi.

Tovar ayirboshlash hajmini oshirish, ikki mamlakat yetakchi kompaniyalari

ishtirokidagi qo‘shma investitsiya loyihalari va sanoat kooperatsiyasi dasturlarini ilgari surish bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rish masalalari muhokama qilindi.

O‘zbekiston va Misr yetakchilari madaniy-gumanitar almashinuvni yanada faollashtirish muhimligini ham ta’kidladilar. Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar ko‘rib chiqildi.

O‘za

KO‘P QIRRALI HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

28-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.

Davlat rahbarlari bir-birini va qar-dosh xalqlarimizni muborak Qurbon hayiti bilan dildan qutlab, tinchlik-oso-yishtalik, farovonlik va ravnaq tilaklarini izhor etdilar.

Ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlari mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Oliy darajadagi kelishuvlarga muvofiq siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalaridagi amaliy hamkorlik yuqori sur‘at va samarali tus olgani qayd etildi.

Yurtimizda Turkiyaning yetakchi kompaniyalari ishtirokida yirik investitsiya loyihalari faol amalga oshirilmoqda. Yil

O‘za

AMALIY HAMKORLIK LOYIHALARINI JADALLASHTIRISH MUHIMLIGI TA’KIDLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28-iyun kuni Qatar Davlati Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy bilan joriy yilning iyun oyida O‘zbekistonga davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlar va qabul qilingan bitimlar ijrosini jadallashtirishning dolzarb masalalarini muhokama qildi.

Telefon muloqoti avvalida davlat rahbarlari butun musulmon ummati uchun muqaddas bo‘lmish Qurbon hayiti – Iyd al-Adho bilan bir-birini dildan qutlab, ikki mamlakat xalqlariga tinchlik-oso-yishtalik, ravnaq va barqaror taraqqiyot tiladilar.

Samarqandda o‘tgan oliy darajadagi uchrashuv ikki tomonlama munosabatlarni sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqqani va aniq mazmun bilan boyitgani haqida yakdillik fikr bildirildi.

Yetakchilar savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalarida qabul qilingan qo‘shma qarorlar ijrosining borishini ko‘rib chiqdilar. “Yashil energetika”, moliya, infratuzilma, transport va logistika, qurilish va boshqa tarmoqlardagi loyihalarni ilgari surish muhimligi qayd etildi.

Xalqaro va mintaqaviy kun tartibining eng dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘za

SAMIMIY QUTLOVLAR

Butun musulmon ummatining muqaddas bayrami, xalqimizning ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutgan, ezigulik, bag‘rikenglik, mehr-muruvvat va saxovat kabi boqiy umuminsoniy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan Qurbon hayiti – Iyd al-Adho munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga xorijiy davlatlar yetakchilari, nufuzli siyosat, jamoat va din arboblari, yetakchi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlaridan tabriklar kelmoqda.

Qutlovlarda O‘zbekiston yetakchisi va ko‘p millatli xalqiga hurmat-ehtirom, tinchlik, farovonlik va ravnaq tilaklari izhor etilgan, mamlakatimiz bilan do‘stlik va ko‘p qirrali hamkorlikni bundan buyon ham rivojlantirish va mustahkamlashga intilish tasdiqlangan.

Jumladan, quyidagilar o‘z tabriklarini yo‘llagan:
Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti **Qosim-Jomart Toqayev**;
Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti **Sadir Japarov**;
Tojikiston Respublikasi Prezidenti **Emomali Rahmon**;
Turkmaniston Prezidenti **Serdar Berdimuhamedov**;
Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi **Gurbanguli Berdimuhamedov**;
Qozog‘iston Respublikasining birinchi Prezidenti **Nursulton Nazarboyev**;
Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti **Ilhom Aliyev**;
Turkiya Respublikasi Prezidenti **Rejep Tayyip Erdog‘an**;
Misr Arab Respublikasi Prezidenti **Abdulfattoh as-Sisi**;
Birlashgan Arab Amirliklari Prezident **Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon**;
Qatar Davlati Amiri **Tamim bin Hamad Ol Soniy**;
Kuvayt Davlati Amiri **Navaf al-Ahmad al-Jobir as-Saboh**;
O‘mon Sultoni **Haysam bin Toriq Al Said**;
Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi **Abdulla II**;
Iroq Respublikasi Prezidenti **Abdullatif Jamol Rashid**;
Suriya Arab Respublikasi Prezidenti **Bashar Asad**;
Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay amirligi hokimi **Shayx Muhammad bin Roshid Ol Maktum**;
Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri o‘rinbosari, Prezident ishleri bo‘yicha vaziri **Shayx Mansur bin Zoid Ol Nahayon**;
Kuvayt Davlati valiahdi **Mishaal al-Ahmad al-Jobir as-Saboh**;
Falastin Davlati Prezidenti **Mahmud Abbas**;
Birlashgan Arab Amirliklari Bosh vaziri o‘rinbosari, ichki ishlar vaziri **Shayx Sayf bin Zoid Ol Nahayon**;
Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi **Kubanichbek Omuraliyev**;
Islom hamkorlik tashkiloti bosh kotibi **Husayn Ibrohim Toha**;
Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bosh kotibi **Husrav Noziyri**;
Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha Islom tashkiloti (ISESCO) bosh direktori **Salim al-Malik**;
Kavkaz musulmonlari idorasi raisi, MDH Dinarlararo kengashi hamraisi shayxulislom **Ollahshukur Poshshozoda**.
Qutlovlar kelishda davom etmoqda.



TARAQQIYOT YO‘LI

YANGI BOSH QONUNDA YANGI DAVR NAFASI

Har qanday hujjat — mahalla fuqarolar yig‘ini tomonidan beriladigan ma’lumotnomadan tortib, to mamlakat Konstitutsiyasiga qadar — qachon o‘z ro‘yobini, amaliyotini topadi? Qachonki, o‘sha hujjat, avvalo, sinchiklab o‘qilsa, idrok etilsa va ijrosiga ongli tarzda kirishilsa! Mahalla fuqarolar yig‘ini tomonidan berilgan hujjat bir fuqaro, nari borsa, bir oilaning joriy hayotiga tegishli bo‘ladi. Mamlakat Konstitutsiyasi-chi?

Shu nuqtayi nazardan qaralsa, butun bir davlat va xalqning nafaqat bugungi, balki kelgusi o‘n yilliklarda kechajak hayotining deyarli barcha jabhalariga taalluqli bu huquqiy doktrinaning roli va ahamiyati qanchalar katta?!

Davomi 2-betda

NUQTAI NAZAR

INVESTITSIYA iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuch



Investitsiya — umumjamiyat nuqtayi nazaridan muloqotimizda faol so‘z hisoblanmasada, aksariyatimiz mehnat faoliyatimiz, kasb-korimiz turidan qat’i nazar, undan ma’lum ma’noda foydalanamiz. Aytaylik, farzandlarimiz kelajakda yaxshi mutaxassis bo‘lib yetishishi uchun ularga yoshligidan ma’lum mablag‘ evaziga qo‘shimcha darslarda o‘qish imkoniyatini yaratib beramiz.

Davomi 4-betda

2023 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI 9-IYUL PREZIDENTI SAYLOVI

Gazetamizning bugungi sonida O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Robaxon Maxmudovanning saylovoldi tashviqoti bo‘yicha maqola chop etilmoqda. Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e’lon qilinyapti.

3-betga qarang.



“O‘ZBEKISTON, ERTANGNI ishon menga!”



Tanlagan sohasida katta yutuqlarga erishib, hatto jahon maydoniga chiqib borayotgan xotinqizlar haqida yozish doim zavqli. Oxirgi marta shu yilning aprel oyida xalqaro iqtisodchi Go‘zal Hakimova haqida maqola yozgandim. Uning muvaffaqiyati, tashlayotgan katta qadamlari, yutuqlari ko‘pchilikda qiziqish uyg‘otib, intiluvchanligidan rag‘bat olganlar ham bo‘ldi. Aslida, yurtimizda ana shunday bilimli, yuksak salohiyatli yigit-qizlar juda ko‘p. Ayni vaqtda mamlakatimizda davom etayotgan Yoshlar oyligi hamda 30-iyun — Yoshlar kuni munosabati bilan yana bir iqtidor sohibasi haqida yozishga qaror qildim.

Davomi 5-betda

BUGUNNING GAPI

SUV KELDI — NUR KELDI



Joriy yil oxirigacha Orolbo‘yi aholisining 74,3 foizi toza ichimlik suv bilan ta’minlanadi

Mamlakatimizning yangi rivojlanish bosqichida barcha sohalar qatori atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiat resurslaridan, xususan, suvdan oqilona foydalanish, aholi foydalanadigan ichimlik suv sifatini yaxshilash va u bilan ta’minlanganlik darajasini oshirishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

So‘nggi yillarda respublika aholisini toza ichimlik suv bilan ta’minlash bo‘yicha “Qoraqalpog‘ suv ta’minoti” mas’uliyati

cheklangan jamiyati tomonidan ko‘plab amaliy ishlar bajarilmoqda.

Davomi 2-betda

TARAQQIYOT YO'LI

YANGI BOSH QONUNDA YANGI DAVR NAFASI

**Rahmon QO'CHQOR,
TDYU dotsenti v.b.,
filologiya fanlari nomzodi**

Boshlanishi 1-sahifada

Tarixiy referendumdan keyin bir hafta o'tibooq Prezidentning "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. Mazkur hujjat muqaddimasi va dastlabki bandida: "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini so'zsiz va to'liq amalga oshirish, unda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarni Yangi O'zbekiston ulug'vor g'oyasiga hamohang tarzda ro'yubga chiqarish, davlat organlarining faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo'lga qo'yish, fuqarolar o'z hayotida xalq Konstitutsiyasi ruhini yaqqol his etib turishini ta'minlash maqsadida "Yangi tahrirdagi Konstitutsiyani so'zsiz va to'liq amalga oshirish barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi navbatdagi ustuvor vazifasi etib belgilansin", deya ta'kidlandi.

Ushbu matndagi bir iboraga diqqat qilaylik — "xalq Konstitutsiyasi". Darhaqiqat, yangi tahrirdagi Bosh qonunimizning ilk satrlaridan boshlab oxirgi moddasiga qadar bu hujjat, birinchi galda, xalq, el-ulus manfaatlarini uchun xizmat qilishga yo'naltirilgan ko'rinib-sezilib turadi.

Masalan, agar avvalgi Konstitutsiya Muqaddimasi bu hujjatni "O'zbekiston xalqi... o'zining muxtor vakillari siyosida" qabul qilishi aytilgan bo'lsa, yangi tahrirdagi Asosiy qonunimizda "Biz, O'zbekistonning yagona xalqi... ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e'lon qilamiz", deya bitilgan. Qolaversa, Konstitutsiyamiz bilan xalqimiz aniq qanday buyuk maqsad-muddaolarni ko'zlayotgani, kelgusi avlodlar oldidagi qanday yuksak mas'uliyatlar zimmaga olinayotgani, bunda davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanilishi aniq-ravshan ifoda etilgan.

Ta'kidlanganidek, Konstitutsiya matnida amalga oshirilgan kardinal o'zgartish va muhim qo'shimchalarning hammasi xalq



hamda davlatning yangi zamon, yangi makon, yangi dunyoqarash va betinim tafakkur sharoitida yashash, mehnat qilish va bu yaratuvchilik mehnatidan bahra olishiga qaratilganidir.

Jumladan, tilga olingan Muqaddimada nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ham tantanali ravishda e'lon qilingan. Shu munosabat bilan bundan uch-to'rt yil avval tafsiloti jahon ijtimoiy tarmoqlarida yoyilgan bir ibratli hodisa yodga keladi.

Bu Germaniya davlatini 16 yil davomida muvaffaqiyatli boshqargan Angela Merkel xonimning o'z vatandoshlari — olmon shifokorlari talabi munosabati bilan aytgan birgina savol-murojaati bilan bog'liq. Davlat shifoxonalarda xizmat qilayotgan, shundoq ham boshqa mamlakatlardagi hamkasblaridan ko'proq haq olayotgan shifokorlar o'z maoshlarini oshirish xususida talabnomaga bilan chiqqanida, Merkel xonim ularga qarata mana bu mazmundagi birgina ta'sirli gap aytgandi: "Tushunmayapman, sizlar barchangizga ta'lim-tarbiya bergan o'qituvchilaringizdan ham ko'proq haq olmoqchimisizlar?!"

Aytishlaricha, bu gapdan keyin Kanslerga biror kishi e'tiroz bildirmagan ekan.

Mana shu tafsilot va taassurot asnosida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga kiritilgan alohida bir modda maqsad-mohiyatiga nazar tashlaylik. Bu 52-modda bo'lib, uning birinchi qismida shunday deyiladi:



"O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi".

Maqolamiz avvalida ta'kidlaganimizdek, har qanday rasmiy hujjat, ayniqsa, Konstitutsiya matniga shunchaki, yuzaki nazar tashlash biror-bir fuqaro, ayniqsa, davlat va jamiyat boshqaruvida faoliyat olib borayotgan mutasaddilar uchun kechirib bo'lmas holdir. Jumladan, ular umumxalq ovozi bilan qabul qilingan Bosh qonunimizning shu moddasida o'qituvchi-muallim mehnatiga berilgan ayni ta'rifi to'raligicha ong-u shuuriga joylab, bu kasb egalari shu ong-ula munosabatda bo'lsalar, joriy va kelajak hayotimizda qanchalar katta ijobiy o'zgarishlarga zamin yaratilishini tasavvur qilish qiyin emas.

Zero, o'qituvchi bilan munosabatga kirishayotgan kishi — u hokim yoxud ichki ishlar xodimi bo'ladimi, ota-ona yoki fermer xo'jaligi rahbari bo'ladimi — ayni mana shu yuksak ong, tushuncha bilan masalammuammolariga yondashsa, demakki, bu harakati bilan jamiyat va davlatni rivojlantirish, barkamol olmonni tarbiyalashga o'zining amaliy hissasini qo'shgan bo'ladi va yoki aksincha!

Ikkinchi tomondan, o'qituvchi kasbiga da'vogar har bir mutaxassis o'z zimmasiga konstitutsiyaviy norma darajasida yuklanayotgan mas'uliyatni chuqur his qilmo'gi, unga katta umidlar-la boqib turgan o'quvchilari bilan olib borayotgan har bir mashg'uloti, oxir-pirovardida, qanday natija keltirishini aniq tasavvur etmo'gi lozim. Qolaversa, qadim millat va mamlakat kelajagi ko'liga ishonib topshiriladigan pedagoglarni tayyorlaydigan, ularga shu ulug'rutbaga loyiq ekanini tasdiqlovchi hujjat — oliy ma'lumot haqidagi diplom tutqazadigan oliy o'quv yurtlari ham o'z faoliyatini ayni missiyaga yarasha yuksak darajaga ko'tarmoqlari talab qilinadi.

Ana shu talabga javob beradigan o'qituvchilarga esa davlat yana Konstitutsiya maqomida quyidagilarni kafolatlaydi: "Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi".

Guvohi bo'layotganimizdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning har bir moddasini, zarur bo'lsa, bu moddalarni tashkil etgan har bir jumlasini sinchiklab idrok etish bu oliy hujjatning hayotga ongli va o'g'ishmay tatbiq etilishida, Prezident farmonida uqtilirilganidek, uni "so'zsiz va to'liq amalga oshirish"da muhim rol o'ynaydi.

SAYLOV — 2023

QORAQALPOG'ISTONDA HAM MUDDATIDAN OLDIN OVOZ BERISH JARAYONI QIZG'IN DAVOM ETMOQDA

Avval xabar berganimizdek, kecha soat 11:00 dan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi muddatidan oldin ovoz berish jarayoni boshlandi.

Saylov kuni o'z yashash joyida bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmagan ovoz beruvchi fuqarolar muddatidan oldin ovoz berish huquqiga ega. Saylov uchastkasida muddatidan oldin ovoz berish vaqti ish kunlari soat 9:00 dan 18:00 ga qadar olib borilsa, dam olish va bayram kunlari soat 11:00 dan 17:00 ga qadar amalga oshiriladi.

Nukus shahridagi 28-saylov uchastkasida 2165 fuqaro ovoz berishi uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Bu uchastkada 28 nafar yosh birinchi marta ovoz

jami 2641 saylovchi ro'yxatga olingan. Ulardan 22 fuqaro saylovda ilk bor o'z tanlovi bilan ishtirok etadi.

— Saylov uchastkasida barcha shart-sharoit yaratilgan ekan. Yoz mavsumi bo'lgani bois, kimdir dam olishga, kimdir xizmat safariga ketadi, — deydi Marinka Babanazarova. — Men ham xizmat safariga ketishim sababli o'zim tanlagan nomzodga muddatidan oldin ovoz berdim.

Ma'lumot uchun aytish joiz, 1-Qoraqalpoq'iston okrug saylov komissi-



beradi. Yusupovlar oilasi yozgi ta'tilga chiqishi munosabati bilan muddatidan oldin ovoz berish uchun saylov uchastkasiga keldi.

— Biz 9-iyul — saylov kuni oila a'zolarimiz bilan dam olishda bo'lamiz, — deydi Sultanbek Yusupov. — Shuning uchun bugun turmush o'rtog'im bilan birga saylov uchastkasiga kelib, muddatidan oldin ovoz berdim.

Nukus shahri Chimboy choyxona mahallasidagi 12-saylov uchastkasida esa

yasi hududida 654 saylov uchastkasi tuzilgan bo'lib, mazkur saylov uchastkalariga el ichida obro'ga ega 6266 nafar komissiya a'zosi tasdiqlangan. Ularning 50,9 foizi xotin-qizlar. Komissiya a'zolari qoraqalpoq, o'zbek, rus, turkman va boshqa millat vakillarini tashkil etadi.

Respublikamizning barcha saylov uchastkalarida muddatidan oldin ovoz berish jarayoni davom etmoqda.

M.QUTLIMURAT

BUGUNNING GAPI

SUV KELDI — NUR KELDI

Joriy yil oxirigacha Orolbo'yi aholisining 74,3 foizi toza ichimlik suv bilan ta'minlanadi

Boshlanishi 1-sahifada

Ayni paytda aholini ichimlik suv bilan ta'minlash darajasi 71 foizni tashkil etmoqda. Joriy yil respublikada loyihalashtirilgan va qiymati 211,8 milliard so'm bo'lgan, uzunligi 383,8 kilometr ichimlik suv va oqova suv tarmoqlari hamda 24 ta suv inshooti qurilish ishlari rejalashtirilgan va bu yumushlar jadal davom ettirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi "2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq qiymati 100,4 milliard so'm bo'lgan 69 ta loyihada 342,6 kilometr ichimlik suv tarmog'i yo'tqizish va 17 ta suv inshootida qurilish va rekonstruksiya ishlari bajarilmoqda. Shuningdek, loyiha doirasida 5473 xonadon suv tarmoqlariga ulanib, suv hisoblagichlar bepul o'rnatib berilyapti. Bugungi kungacha 51,8 milliard so'mlik ishlar amalga oshirilib, 34 ta qurilish ishi yakunlandi.

— Nukus shahri aholisini ichimlik suv bilan ta'minlash maqsadida 74,9 milliard so'm mablag' evaziga "Nukus" suv tozalash inshootini ta'mirlashning ikkinchi bosqichi loyihasi bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda, — deydi shahar suv tozalash tarmog'i boshlig'i Azamat Bekturdiyev. — Loyiha oxiriga yetgach, suv tozalash quvati kuniga 65 ming kub metrda 95 ming kub metrga yetadi. Bugungi kunda biz 350 mingdan ziyod aholiga ichimlik suv yetkazib beryapmiz.

Demak, nufusi yil sayin ortib borayotgan Nukus shahri aholisiga suv yetkazib berish imkoniyati yanada kengayadi va bu, albatta, suvning sifatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



Aholining uy-joy sharoitini yaxshilash, hududlarda zamonaviy shaharsozlik talablari asosida ko'p qavatli uy-joylar, ijtimoiy soha va infratuzilma obyektlari hamda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari qurilishini jadallashtirish maqsadida oqova suv tarmog'i va oqova suv tozalash inshootini yangidan qurish ishlari ham jadal olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-dekabrda "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan, loyiha bahosi 36,75 milliard so'm bo'lgan Kegeyli, Qorao'zak va Qonliko'l tumanlarida uzunligi

10,73 kilometr ichimlik, oqova suv tarmoqlari hamda 3 ta oqova suv tozalash inshootini yangidan qurish ishlari bajarilmoqda.

— Xalqaro moliya institutlari ishtirokida "O'zbekistonning g'arbiy hududida ichimlik suv ta'minotini rivojlantirish" loyihasi asosida "Tuyamo'yin" va "Taxiatosh" suv tozalash inshootlarini rekonstruksiya qilish, "Mang'it" suv tozalash inshootini yangidan qurish ishlari bilan birga, Amudaryo, Beruniy, Qorao'zak, Qo'ng'iro't, Mo'ynoq va Nukus tumanlarida uzunligi 1236 kilometr ichimlik suv tarmoqlari hamda 26 ta ichimlik suv inshootini qurish, rekonstruksiya qilish ishlari rejalashtirilgan, — deydi "Qoraqalpoq suv ta'minoti" mas'uliyati cheklangan

jamiyati direktori Ro'zimboy Seytov. — Ushbu ishlar bajarilishi natijasida yil yakunida hududlarda istiqomat qilayotgan 75,5 ming nafar iste'molchi qo'shimcha ichimlik suv bilan ta'minlanadi. Hududlardagi 138,6 ming nafar odamning suv ta'minoti yaxshilanishi barobarida, aholining toza ichimlik suv bilan ta'minlanish darajasi 74,3 foizga yetadi.

2022-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarorida Nukus shahri, Taxiatosh va Xo'jayli tumanlarida bir kecha-kunduzda 45,2 ming kub metr suvni tozalash quvvatiga ega bo'lgan 3 ta oqova suv tozalash inshootini rekonstruksiya qilish, 28 ta oqova suv nasos stansiyasini va 142,3 kilometr oqova suv tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya qilish nazarda tutilgan.

— Biz Nukus shahrida bir kecha-kunduzda 30 ming kub metr suvni tozalash quvvatiga ega bo'lgan oqova suvni tozalash inshootini qurish, 16 ta nasos stansiyasi va 88 kilometr uzunlikdagi oqova suv tarmoqlarini qurish ishlari olib bormoqdamiz, — deydi Ro'zimboy Seytov. — Shu bilan birga, Taxi-

atosh tumanida bir kecha-kunduzda 8 ming kub metr suvni tozalaydigan 8 ta oqova suv nasos stansiyasi va 33,6 kilometr uzunlikda suv tarmoqlari tortiladi. Xo'jayli tumanida esa suv tozalash inshootini qurish bilan birga 4 ta nasos stansiyasi, 20,7 kilometr suv tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari bajariladi.

"Qoraqalpoq suv ta'minoti" mas'uliyati cheklangan jamiyati yeri ulti va yer osti suv manbalariidan foydalanib, aholini toza ichimlik suv bilan doimiy ravishda ta'minlab kelmoqda. Qoraqalpoq'istondagi 3 ta yirik — Tuyamo'yin, Taxiatosh va Nukus suv tozalash inshootlari shu jamiyatga qarashlidir.

— Ichimlik suv aholiga yetib borguncha uch bosqichda tozalanadi. Dastlab tindiriladi, filtrlanadi va so'ng zararsizlantiriladi. Bu ishlar "Qoraqalpoq suv ta'minoti" mas'uliyati cheklangan jamiyati kimyoviy bakteriologik laboratoriyasida amalga oshiriladi, — deydi laboratoriya kimyo muhandisi Ayzada Hakimova. — Shunday laboratoriyalar Qoraqalpoq'iston Respublikasining barcha tumanlarida mavjud bo'lib, suvning sifatini yaxshilash uchun xizmat qilmoqda.

2022-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarorida Nukus shahri, Taxiatosh va Xo'jayli tumanlarida bir kecha-kunduzda 45,2 ming kub metr suvni tozalash quvvatiga ega bo'lgan 3 ta oqova suv tozalash inshootini rekonstruksiya qilish, 28 ta oqova suv nasos stansiyasini va 142,3 kilometr oqova suv tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya qilish nazarda tutilgan.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

HUQUQIY DAVLATNI BIRGALIKDA QURAMIZ



ADOLAT SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASI

Ayni kunlarda mamlakatimizning barcha hududlarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarning saylovoldi targ‘ibot tadbirlari qizg‘in pallaxga kirgan. Xususan, Prezidentlikka nomzodlar hududlarga chiqib, saylovchilarni o‘z dasturlarida ilgari surilayotgan maqsad va vazifalar bilan tanishtirmoqda.

Jumladan, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Robaxon Maxmudova ham hududlarda saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazmoqda. Ularda saylovchilar nomzodning Saylovoldi dasturida belgilangan muhim taklif va tashabbuslar bilan yaqindan tanishtirilmoqda.

Prezidentlikka nomzodning Toshkent shahri saylovchilari bilan uchrashuvi Toshkent davlat yuridik universitetida bo‘lib o‘tdi. Tadbirda ta’kidlanganidek, Robaxon Maxmudovaning Saylovoldi dasturida ilgari surilayotgan g‘oya va vazifalar “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining dasturiy maqsadlariga har jihatdan hamohang bo‘lib, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida adolat tamoyillarini ta’minlashni nazarda tutadi.

Uchrashuvda nomzod Robaxon Maxmudova yig‘ilganlarni o‘z Saylovoldi dasturining ustuvor yo‘nalishlari bilan yaqindan tanishtirdi. Xususan, tadbir ishtirokchilarining aksariyati huquqshunolar ekanligini inobatga olib, dasturda sud-huquq sohasida ilgari surilayotgan takliflar kengroq to‘xtalib o‘tdi.

Dasturda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, eng avvalo, qonun ustuvorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan. Shu bois, biz sudlarning chinakam mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan bir qator takliflarni ilgari surmoqdamiz, — dedi Prezidentlikka nomzod Robaxon Maxmudova. — Ham-mamizda ma’lumki, hozirda sudyalarning o‘z faoliyati yuzasidan mahalliy Kengashlarda muntazam ravishda axborot berish amaliyoti mavjud. Mazkur jarayonda sudyalarning xizmatini yanada yanqaytirish, ayrim paytlarda esa hali yurituvda bo‘lgan va nihoyasiga yetmagan ishlar bo‘yicha ham savol-javob qilish hollari uchraydi.

Shunga ko‘ra, biz sudlar mustaqilligini ta’minlash maqsadida sudyalarning xalq deputatlari Kengashlariga axborot berish amaliyotini bekor qilish taklifini ilgari surmoqdamiz.

Shuningdek, O‘zbekiston aholisi kundan-kunga ortib borayotgan bugungi kunda sudyalarning shtatlar soni aholi soniga nisbatan mutanosib emas, shu bois, sudyalarning sonini oshirishni taklif etyapmiz. Sababi hozirda mamlakatimizda har 100 ming aholiga 3-4 nafar sudya to‘g‘ri kelsa, bu ko‘rsatkich Germaniyada 24 ta, Portugaliyada 19 ta, Vengriyada 29 ta, Xorvatiyada 42 ta, Avstraliyada 27 tani tashkil etmoqda. Shu bois, biz “Ekologiyani ifloslantiruvchi — kompensatsiya to‘lashi lozim” degan prinsip tarafdorimiz, — dedi Prezidentlikka nomzod.

Ta’kidlanganidek, nomzod dasturida Orol mintaqasida yashovchi fuqarolarning taqdiri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ekologik muammolarga ijobiy yechim topish masalalari ham ilgari surilgan. Xususan, ekologik chora-tadbirlarni fuqarolik jamiyati institutlari, ekologik jamoat birlash-

malari bilan nafaqat umummilliy miqyosda, balki muayyan hudud sharoitlarida atrof-muhit ifloslanishi, aholi salomatligini himoya qilish bilan bog‘liq qonunchilikdagi “bo‘shliq”larni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha yaqindan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish taklif etilmoqda.

Samimiy muloqot ruhida bo‘lib o‘tgan uchrashuv yakunida partiya faollari hamda bir qator ishtirokchilar nomzodning Saylovoldi dasturi yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Uchrashuvda nomzodimizning Saylovoldi dasturida ilgari surilayotgan g‘oya va maqsadlar bilan atroficha tanishish imkoniga ega bo‘ldik, — dedi “Adolat” SDP Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kengashidagi “Ayollar qanoti” raisi Ulbosin Seytjanova. — Ayniqsa, dasturimiz oltinchi yo‘nalishi bugungi kundagi dolzarb masala — ekologiya, atrof-muhitni himoya qilishga bag‘ishlangani diqqatga sazovor. Xususan, ushbu yo‘nalishda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, barcha qurilishlar amaldagi qonunchilikka muvofiq ekologik holat va barqarorlikni hisobga olgan holda olib borilishi bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rilishi e’tiborimizni tortdi.

Tadbirda so‘zga chiqqanlar ishtirokchilarni bo‘lajak saylovda partiyadan ko‘rsatilgan nomzodni qo‘llab-quvvatlashga chaqirdi.

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzodning navbatdagi uchrashuvi Farg‘ona viloyatining Qo‘shneta tumanida bo‘lib o‘tdi. Unda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, partiya faollari, talaba yoshlar, keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Robaxon Maxmudovaning ishonchli vakili Inomjon Qudratov nomzod haqida yig‘ilganlarga batafsil ma’lumot berdi.

Shundan so‘ng Prezidentlikka nomzod so‘z olib, o‘z Saylovoldi dasturida, eng avvalo, Vatanimiz taraqqiyoti yo‘lida huquqiy davlat qurish, ijtimoiy adolatni va milliy iqtisodiyotimizning barqaror o‘rinishini ta’minlash, inno-vatsiyalar va ta’lim sohasini rivojlantirish, aholi salomatligini muhofaza etish hamda xotin-qizlar bandligini ta’minlash kabi ulug‘vor maqsadlar nazarda tutilganligini ta’kidlab o‘tdi.

Farg‘onamizni Markaziy Osiyoning durdonasi, deb ta’riflashni bejiz emas, — deya alohida qayd etib o‘tdi nomzod. — Farg‘ona viloyati o‘zining betakror tabiati, ko‘hna tarixi, katta iqtisodiy salohiyati, unumdor tuprog‘i, boy dehqonchilik analari, eng muhimi, mehmondorlik, mehnatkash, tadbirkor va omiklor insonlari bilan alohida ajralib turadi. Qolaversa, viloyatda 400 dan ortiq moddiy-madaniy meros obyektlari mavjud. Ana shu ulkan va bebaho merosni jiddiy o‘rganib, avaylab-asrab, avlodlarimizga beqaror yetkazishdek mas’uliyatli burchimizni sharafla bilan bajarishimiz kerak, — deb ta’kidlab.

Farg‘ona viloyati azaldan hunarmandlar markazi sifatida dunyoda nom qozongan. Bu o‘rinda Marg‘ilonda ipakchilik-u to‘qimachilik, Rishtonda kulochilik, Qo‘qonda yog‘och o‘ymakorligi-yu khandakorlik san’at darajasiga ko‘tarilgan. Shu bois, biz Saylovoldi dasturimizda azaliy analarimizni davom ettirishga alohida e’tibor beramiz.

Dasturimizda, shuningdek, xotin-qizlarning bandligini ta’minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ayniqsa, qishloq joylaridagi xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish kabi maqsadlarni amalga oshirishda Farg‘ona tajribasidan samarali foydalanish maqsad qilingan.

Prezidentlikka nomzodning Saylovoldi dasturi bilan tanishib chiqdik, — dedi tadbir ishtirokchisi tadbirkor Shahlo G‘aniyeva. — Dastur mamlakat taraqqiyoti yo‘lida muhim bo‘lgan masalalarni o‘z ichiga olgan. Ayniqsa, xotin-qizlar faolligi va rolini oshirish barcha bo‘g‘indagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida xotin-qizlar vakillarini ko‘paytirishga doir takliflar barchamizni quvontirdi.

Shuningdek, dasturda “Onalik, otalik va bolalik davlat muhofazasi to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish tashabbusi ilgari surilgan. O‘ylaymanki, bu juda chuqur o‘ylangan va milliy qadriyatlarimizga mos keladigan taklif. Zero, oila muhofazasi — jamiyatning sog‘lom taraqqiyotini ta’minlash maqsadida, “Sog‘lom oila — sog‘lom jamiyat 2030” dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish belgilanganini esa faqat qo‘llab-quvvatlash kerak.

Prezidentlikka nomzodning Buxoro viloyatidagi uchrashuvi Buxoro davlat tibbiyot institutida bo‘lib o‘tdi. Unda partiyaning mahalliy Kengash deputatlari, ta’lim sohasi vakillari, mahalla faollari, nuroniyalar, saylovda ilk bor qatnashayotgan yoshlar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Tadbirni nomzodning Buxoro viloyatidagi ishonchli vakili, partiyaning Buxoro viloyat Kengashi raisi Maqsum Hamidov kirish so‘zi bilan ochib, yig‘ilganlarni nomzodning tarjimai holi haqida Prezidentlik saylovining farovonligini ta’minlashdagi ahamiyatiga to‘xtalib o‘tdi.

Shundan so‘ng nomzod Saylovoldi dasturida ilgari surilgan g‘oya va maqsadlarni saylovchilar e’tiboriga havola etdi.

Buxoro viloyati azaldan ilm-fan va ma’rifat maskani bo‘lib kelgan. Biz ham o‘z Saylovoldi dasturimizda ma’naviy taraqqiyotga erishish, mamlakatimizda ilm-fan, innovatsiyalar va ta’lim sohasining barqaror rivoji taraqqiyotimiz kafolati ekanligiga alohida e’tibor qaratganmiz. — dedi Robaxon Maxmudova. — Jumladan, mamlakatimizda ilmiy tadqiqotlardan olingan ijobiy natijalarni tibbiyot va sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi va bioteknologiyalar, gidrologiya va suv muammolari, energetika, muqobil energiya manbalari va resurs tejamkor texnologiyalar, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi kabi sohalarga joriy qilish ishlarini izchillik bilan olib borish orqali davlatning iqtisodiy qudratini yanada mustahkamlaymiz.

Shuningdek, ta’lim sohasida ilg‘or davlatlar tajribasi va milliy qadriyatlarimizga tayangan holda maktablarda ta’lim berishning amaldagi standartlarini takomillashtirish, ijtimoiy mavqedan qat’iy nazar, har bir insonga oliy ma’lumot olish imkoniyatini kengaytirish choralarini ko‘ramiz.

Biz dunyo ilm-fan yutuqlarini o‘zlashtirishni maqsad qilgan ekanmiz, ta’lim tizimiga xalqaro talab va standartlarni joriy etishimiz muhim sanaladi. Shu bois, Buyuk Britaniya, Avstraliya, AQSH va Yevropa mamlakatlari universitetlariga kirishda nomzodlardan IELTS, TOEFL, Cambridge ESOL kabi xalqaro sertifikatlariga ega bo‘lish talabini 2025-yildan boshlab bakalavriatga kirish uchun yurtimizda ham ingliz tilini bilish bo‘yicha milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo‘lish tartibini joriy etish choralarini ko‘ramiz. Bunday amaliyot Gruziya, Italiya davlatlarida joriy etilib, o‘z samarasini bermoqda.

Shuningdek, uchrashuv yakunida so‘zga chiqqan tadbir ishtirokchilari ham nomzodning Saylovoldi dasturini qo‘llab-quvvatladilar.

Nomzod o‘z dasturida ilgari surayotgan g‘oya va takliflar, albatta, yurtimizning ravnaqi, fuqarolarimizning farovonligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi, — dedi muhokamada so‘zga chiqqan Buxoro davlat tibbiyot instituti kafedrasida assistenti, falsafa fanlari doktori Shahnova Po‘latova. — Dasturdagi mamlakatimizda ilmiy tadqiqotlardan olingan ijobiy natijalarni barcha soha va tarmoqlarga izchillik bilan tatbiq etish orqali davlatning iqtisodiy qudratini yanada mustahkamlashga jiddiy e’tibor qaratilgan olim sifatida meni mamnun etdi.

Dasturda, shuningdek, maktab ta’limini xalqaro ta’lim dasturlari asosida izchil ishloq qilish, markazdan uzoq qishloqlarda yashab, a’lo baholar bilan o‘qigan, ota-ona qaramog‘isiz qolgan, kam ta’minlangan iqtidorli yoshlarning davlat hisobidan oliy ta’lim olishini kafolatlash takliflari ham ilgari surilgan. Darhaqiqat, maktab ta’limi — kelajak asosi. Faqat zamonaviy ma’rifat, chuqur bilimlarga ega yorqin kelajakka boshlab boruvchi yo‘ldir. Shu sababli ham dasturda ta’lim sohasini ishloq qilish taklifi ilgari surilgan qo‘pchilikka manzur bo‘ldi.

Qashqadaryo viloyatining Koson tumanida o‘tkazilgan uchrashuvda Prezidentlikka nomzod tadbir ishtirokchilari o‘z Saylovoldi dasturining ustuvor yo‘nalishlari bilan tanishtirar ekan, viloyat tarixiga ham alohida to‘xtalib o‘tdi.

Bugun sizlar bilan, ulkan iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy salohiyatga ega Qashqadaryo viloyati aholisi bilan uchrashib turganimdan benihoya mamnunman.

Chunkin Qashqadaryo ulug‘ shoir va yozuvchilar Vatani. Zamonaviy adabiyotimizning Normurod Narzullayev, Muhammad Rahmon, Xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov singari o‘nlab, yuzlab ijodkorlari o‘z asarlarida O‘zbekistonni tarannum etib, jahongira tanigan.

Shu bilan bir qatorda, Qashqadaryo zaminini tom ma’nodan oltin zamin, deb aytsak bo‘ladi. Zero, viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hamda tabiiy resurslarini qazib olish bo‘yicha O‘zbekistonda muhim o‘rin egallaydi.

Nomzod Saylovoldi dasturida ilgari surilgan ustuvor yo‘nalishlardan biri — mamlakatning eng katta boyligi bo‘lgan xalq salomatligini mavzusiga alohida to‘xtalib, jumladan, shunday dedi:

Biz aholiga kafolati tibbiy xizmat ko‘rsatish, zamonaviy texnologiya va davolash usullarini keng joriy qilishni davom ettirish tarafdorimiz. Jumladan, “aqliy tibbiyot” tizimini shakllantirish huquqiy asoslarini ishlab chiqib, tibbiyot sohasiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni kengaytirish qo‘llab-quvvatlaymiz.

Shu bilan birga, sog‘liqni saqlash tizimini ijtimoiy davlat tamoyiliga muvofiqlashtirgan holda “O‘zbekiston Respublikasining Sog‘liqni saqlash kodeksi” loyihasini yanada takomillashtirish, unda sog‘liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya qilish, aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan bahramand bo‘lishini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz.

Uchrashuvda so‘zga chiqqanlar nomzodning Saylovoldi dasturi borasida o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Nomzodning dasturida inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan muhim takliflar va ularni amalga oshirish g‘oyasining izchil yoritilgan e’tiborini tortdi, — deydi Oliy Majlis Senati a’zosi Abdurahim Ibrayev. — Dasturdan o‘rin olgan eng muhim masala, albatta, xalq salomatligi masalasidir. Xususan, nomzodimiz nodavlat tibbiyot tashkilotlarini tijorat tashkilotidan notijorat tashkilotiga

o‘tkazish bo‘yicha amaliy choralamini ko‘rish taklifini ilgari surmoqda. Ya’ni Robaxon Maxmudova tibbiyot daromad olish manbaiga aylanmasligi tarafdori. Buning mexanizmlari, xususan, tibbiyot sug‘urtasini rivojlantirish esa ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilishi kerak bo‘ladi. Bunday amaliyot AQSH, Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda keng qo‘llanilib, o‘zini oqlagan.

Shuningdek, nomzod dasturida farmatsevtika va tibbiyot xodimlari orasidagi yashirin kelishuvlar ortidan bemorlarni haddan ziyod dorilar sotib olishga undash holatlarini borligi va bu kabi holatlarni bartaraf etish yuzasidan aniq takliflar berilayotgani ishtirokchilarda nomzod dasturiga nisbatan katta qiziqish uyg‘otdi.

Dasturda tibbiyot sohasidagi bunday munosabatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri korrupsiya sifatida baholanishi, tibbiyotchilar va farmatsevtika orasida noqonuniy muloqot to‘liq taqiqlanishi, bunday muloqotlar va sovg‘alar uchun jazo muqarrar bo‘lishi qat’iy belgilanishi aytib o‘tilgan. Bu kabi takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi tibbiyotimizning jahon standartlarida asosida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xorazm viloyatida saylovchilar bilan Prezidentlikka nomzodning uchrashuvi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filialida tashkil etildi.

Tadbirni nomzodning Xorazm viloyatidagi ishonchli vakili — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti, Xorazm Ma’mun akademiyasi professori Ikrom Abdullayev kirish so‘zi bilan ochib, nomzodning tarjimai holi, mehnat faoliyati haqida ma’lumot berib o‘tdi. Shuningdek, ishonchli vakil nomzod o‘z Saylovoldi dasturida davlat va jamiyat taraqqiyotiga, fuqarolar farovonligiga oid izchil takliflarni ilgari surayotganiga alohida e’tibor qaratdi.

Shundan so‘ng Robaxon Maxmudova tadbir ishtirokchilariga o‘z Saylovoldi dasturida ilgari surilayotgan ustuvor yo‘nalishlar xususida gapirib berdi.

Fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va bu yo‘nalishda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqish lozim, deb hisoblaymiz. Bu borada davlatning iqtisodiy faoliyati natijasida yuzaga kelgan daromadni adolati taqsimlashni ta’minlaydigan huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish birlamchi vazifamizdir.

Shu bois, biz hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy bir xil o‘rinishni ta’minlash, tuman va shaharlarni bir maromda rivojlantirish, shuningdek, hududlarda subsidiyalarni berish tizimini takomillashtirish va maqsadli ishlatilishi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda hududlardagi ijtimoiy obyektlar va eng muhim strategik obyektlarda boshqa davlat mulklarini fuqarolarga tanlov imkoniyatini bergan holda xususilashtirish berish orqali ham muayyan natijalarga erishish mumkin, deb hisoblaymiz.

Biz bu jarayonda bojxona va soliq imtiyozlarini takomillashtirish, imtiyozlarni aniq sohalarga berish orqali hududlarni mutanosib tarzda bir xilda rivojlanishini ta’minlaymiz.

Uchrashuvda so‘z olgan tadbir ishtirokchilari ham nomzod Saylovoldi dasturidan o‘rin olgan ayrim masalalarga alohida to‘xtalib o‘tdi.

Nomzodimizning Saylovoldi dasturida qishloq xo‘jaligi sohasini taraqqiy ettirish borasida ham qator takliflar ilgari surilganini men kabi ko‘pchilik xorazmlik saylovchilarning ko‘nglidagi gap bo‘ldi, — dedi “Adolat” SDP Xorazm viloyat Kengashi matbuot kotibi Zamira Abdullayeva. — Sababi viloyatimiz aholisi bir qismining kundalik turmush tarzi bevosita qishloq xo‘jaligi tarmoqlari bilan bog‘liq. Nomzod dasturida belgilangan qishloq xo‘jaligi sohasi rivojini ilmiy asosda tashkil etish, fan va amaliyotning o‘zaro uyg‘unligi orqali iqtisodiy yuqori natijalarga erishish borasidagi takliflar, o‘z navbatida, aholi bandligini ta’minlashga ham katta hissa qo‘shadi.

Hududlarda bo‘lib o‘tayotgan uchrashuvlarda so‘zga chiqqanlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Robaxon Maxmudovaning Saylovoldi dasturida taklif etilayotgan ustuvor maqsad va g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz.

Uchrashuvda so‘zga chiqqanlar nomzodning Saylovoldi dasturi borasida o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi.

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Robaxon Maxmudovaning saylovchilar bilan uchrashuvlari davom etmoqda.

O‘zbekiston “Adolat” SDP Matbuot xizmati



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTLIGIGA “ADOLAT” SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASIDAN NOMZOD ROBAXON MAXMUDOVAGA OVOZ BERING!


NUQTAYI NAZAR

INVESTITSIYA

iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuch

Zumrad G'OIBNAZAROVA,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Malika BOBOJONOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistent o'qituvchisi

Boshlanishi 1-betda

Dehqon esa yaxshi hosil olish uchun yerning meliorativ holatini yaxshilaydi, urug'ni yangilaydi yoki yetishtirayotgan mahsulotini qayta ishlash uchun pul tikadi. Bularning barchasidan ko'zlangan maqsad esa yaqin, o'rta yoki uzoq istiqbolda sarf etilganidan bir necha yuz, hatto ming barobar ko'p naf olishdir.



Bular investitsiyaning eng sodda ko'rinishi, xolos. Uning asl mohiyati ancha keng. Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunida investitsiya tushunchasining mazmuni "Xo'jalik va boshqa faoliyat obyektlariga qo'yilgan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga bo'lgan huquqlar" sifatida belgilangan.

Makroiqtisodiy darajada investitsiyalar ishlab chiqarish vositalarini takror ishlab chiqarishga, uy-joy fondini, tovar zaxiralarini

ko'paytirishga qaratilgan xarajatlarning bir qismi, ya'ni yalpi ichki mahsulotning joriy davrda iste'mol qilinmagan qismi sifatida tushuniladi.

Moliya nazariyasida investitsiyalar real yoki moliyaviy aktivlarni sotib olish bilan bog'liq, ya'ni mohiyatiga ko'ra, bu kelajakda daromad olish maqsadidagi xarajatlardir. Boshqacha aytganda, bu ma'lum bir hozirgi qiymatni kelajakdagi noaniq qiymatga almashirishdir. Umuman olganda, iqtisodiyotda sarmoyalar kapital to'planish

shilaydi, ularning ishlab chiqarish va moliya-xo'jalik faoliyatini zamon talablari darajasiga ko'tarishga yordam beradi.

Shu bois, so'nggi yillarda mamlakatimizning investitsion jozibadorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu



jarayoni sifatida qaraladi. Oxirgi ta'rif kelajakdagi manfaatlar va ular bilan bog'liq xavflarni asosiy mezon sifatida aks ettiradi.

Shunday qilib, investitsiya qarorlarini qabul qilish kutilayotgan daromad va xavf nisbati tahliliga asoslanadi. Shuning uchun ham investitsiyalar mohiyatini aniqlashda ular har xil risklar va kutilayotgan daromadlar bilan bog'liqligini doimo yodda tutish kerak.

Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, investitsiyalar barcha davlatlar, ayniqsa, O'zbekiston kabi jadal rivojlanish yo'lidagi mamlakatlarning iqtisodiy barqarorlikka erishishida muhim omil sanaladi. Negaki, xorijiy sarmoyalar hisobiga yangi ishlab chiqarish quvvatlari va shunga mos ravishda yangi ish o'rinlari tashkil etiladi. Shu bilan birga, ilg'or texnologiyalar, ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil etishning zamonaviy usullari kirib keladi.

Xorijiy investorlar korxonalariga nafaqat sarmoya kiritadi, ularni rekonstruksiya qiladi va texnik jihatdan qayta jihozlaydi, shu bilan birga, jahon bozorlariga ham yo'l ochadi. Bu esa, o'z navbatida, xo'jalik yurituvchi subyektlarning sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlarga moslashuvini yax-

borada 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard dollar, jumladan, 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish vazifasi belgilangan.

Investitsiyalar iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuch sifatida uning oldinga siljishini ta'minlaydi, degan g'oya har qanday iqtisodiy nazariyaning aksiomasi hisoblanadi. Har bir davlat, eng avvalo, moddiy ishlab chiqarish sohasiga ham mahalliy, ham xorijiy investorlarni jalb qilishga harakat qiladi. Shu maqsadda muayyan investitsiya siyosati ishlab chiqilib, amalga oshiriladi.

Yangi O'zbekistonda izchil amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar oqilona tarmoq, reproduktiv va hududiy mutanosibliklarga erishish, integratsiya jarayonini rivojlantirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlashni nazarda tutadi. Ularning butun majmuasini hal qilish tegishli investitsiya siyosatini amalga oshirish, investitsiya jarayonlarini tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq.

Mamlakatimizda investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan katta ishlar qilindi va tizimli davom etyapti. Jumladan, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 15 foizdan 12 foizga tushirildi. Xabaringiz bor, ilgari ushbu soliq stavkasi 20 foiz edi. Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'ini eksportchi korxonalariga 7 kun ichida qaytarish joriy qilindi, soliq va bojxonada o'zaro hisobga olish yo'lga qo'yildi. Shu paytgacha investorlar 2 ta alohida tizim orasida sarson edi.

Bundan tashqari, xorijiy investorlarning o'z aksiyalaridan oladigan dividendlari uchun yil muddatga soliqdan ozod qilindi, ular uchun foyda solig'i 20 foizdan 12 foizga tushirildi.

Investorlar uchun zarur bo'lgan 7 mingdan ziyod xomashyo va tovarlarga bojxona bojlari bekor qilindi. Bojxona hududida qayta ishlashning soddalashtirilgan tartibi joriy etildi.

O'zbekistonning Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki kabi yirik xalqaro moliya institutlari va tashkilotlari bilan yaqin hamkorligi tufayli 2022-yilda jami 11,9 milliard dollarlik xorijiy investitsiya o'zlashtirilishiga erishildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni ham yil sayin ortib bormoqda. Xususan, 2017-yilda ular 5,5 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 15,8 mingtaga yetdi. Buning qariyb 6,5 mingtasi qo'shma, 9 mingdan ortig'i esa to'liq xorijiy korxonalar hisoblanadi.

O'zbekiston har yili 4 milliard AQSH dollarigacha sarmoya kiritish imkoniyatiga ega ulkan bozor hisoblanadi. Shu o'rinda turli sohalardagi hamkorlikning istiqbollari va ustuvor yo'nalishlariga qisqacha to'xtalib o'tsak.

Birinchi, bugungi kunda energetika sohasidagi ikki tomonlama hamkorlik istiqbolli hisoblanadi.

Ikkinchi, O'zbekiston to'qimachilik tarmog'i, ayniqsa, tayyor mahsulot ishlab chiqarishning to'liq sikliga ega korxonalarini rivojlantirishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlaydi.

Paхта talasi yetishtirish bo'yicha jahonda yetakchi davlatlardan biri bo'lgan O'zbekiston to'qimachilik sanoatini rivojlantirish uchun yuksak salohiyatga ega. Respublikada yiliga 3,5 million tonnaga yaqin paхта xomashyosi olinib, undan 1,3 million

tonnagacha paхта talasi olinadi. Keyingi yillarda sanoat ishlab chiqarishining yalpi hajmida to'qimachilik sanoati mahsulotlarining ulushi 21 foizgacha oshdi. Yengil sanoat korxonalarida paختa talasining 27 foizini qayta ishlamoqda. To'qimachilik sanoatini rivojlantirish dasturiga muvofiq, yaqin yillarda bu ko'rsatkichni 50 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Uchinchidan, moliya-bank sohasida qo'shma tuzilmalar, marketing, injiniring, lizing, auditorlik va sarmoyaviy kompaniyalarni tashkil etish bo'yicha ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirish imkoniyatlari katta.

Ta'kidlash joizki, samarali moliyaviy vositalarni ishlab chiqish moliya sohasida hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi. O'zbekistonning sug'urta tavakkalchiligining yanada qulay toifaga o'tkazilishi, shuningdek, mamlakatimizda amalga ko'paytirilayotgan investitsiya loyihalari bo'yicha sug'urta kafolatlari limitining ko'paytirilishi ham ishbilarmonlik aloqalarini rivojlantirish uchun rag'bat bo'ladi.

To'rtinchidan, O'zbekiston me'moriy-tarihiy yodgorliklari, muqaddas qadamjolari, noyob tabiiy sharoiti, ko'plab milliy bog' va qo'riqxonalar bilan turizm sohasida ulkan salohiyatga ega.

Beshinchidan, katta ishlab chiqarish xomashyosi va ilmiy-texnik salohiyatga ega kimyo sanoati respublika iqtisodiyotining yetakchi bazaviy tarmoqlaridan biridir. Mazkur tarmoqda ishlab chiqarilgan mahsulotlar kimyo, metallurgiya, oltin qazib olish, to'qimachilik, yengil, oziq-ovqat sanoati, respublika qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladi va eksportga ham jo'naladi.

Umuman olganda, xorijiy tajribadan ko'rish mumkinki, o'tish davrida investitsiyalar nafaqat rekonstruksiya va ta'mirlash, balki yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etishda ham eng muhim omilga aylanadi. Shu bois, O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy kapitalni jalb qilish va ulardan foydalanish hozirgi bosqichda investitsiya jarayonining muhim qonuniyatiga aylanib bormoqda.

O'zbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirish, jumladan, xususiy lashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, milliy iqtisodiyotda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish faol investitsiya siyosati bilan uzviy bog'liq. Buning ahamiyati mamlakatimizning jahon bozoriga integratsiyalashuvi bilan yanada muhim ahmiyat kasb etadi.


MAHALLIYLASHTIRISH


"O'ZBEKISTONDA ISHLAB CHIQRILGAN"

FARG'ONA VILOYATIDA IMPORT KAMAYIB, EKSPORT O'SMOQDA

12 foizga tushirildi. 3,5 ming turdagi tovarlar uchun import boji va 1,1 ming turdagi tovarlar uchun aksiz solig'i bekor qilindi, 3 mingdan ziyod turdagi tovarlar uchun import bojlari kamaytirildi. Investitsiya muhitini tubdan yaxshilash va sohalarning investitsi-

chiqarish yo'lga qo'yildi. Mebelsozlik sanoati uchun muhim bo'lgan xomashyo shu kunga qadar katta sarf-xarajalar hisobiga chetdan olib kelingan. Mahalliy sharoitda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar yuqori sifati va tannarxining arzonligi bilan e'tiborni tortadi.

va rezina buyumlar ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun polimer plastifikator xomashyosi, "Best Design Wire And Cable" MCHJda elektrotexnika sanoati uchun turli elektr uzatkich va kabellar ishlab chiqarish yo'lida amalga oshirilgan loyihalar viloyat sanoat salohiyati jozibadorligini oshirish, eksport hajmini ko'paytirishga xizmat qilmoqda.

Endilikda sanoat mahsulotlari bozorining barcha qatamlaridagi xo'jalik yurituvchi subyektlarni maqsadli jalb qilish, respublikada ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari turi, texnik tavsiflari va sifat ko'rsatkichlari to'g'risida batafsil ma'lumot berish maqsadida elektron kooperatsiya portali faoliyatini tashkil qilish va muntazam ravishda sanoat yarmarkalari o'tkazish kabi ustuvor vazifalar ijrosi ustida ish olib borilmoqda. Elektron kooperatsiya portali hozirga qadar viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan 7478 ta hududiy sanoat korxonasidan 6080 tasi ro'yxatdan o'tkazildi, 5880 ta korxonaning 1532 turdagi mahsuloti portalgga joylashtirildi.

Tadbirkorlik subyektlari uchun hamkorlar topish, shu jumladan, uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishning muhim vositasi sifatida xizmat qilayotgan elektron kooperatsiya portali orqali sanoat mahsulotlari yetkazib berish bo'yicha xo'jalik shartnomalarini masofadan turib tuzish imkoniyati ham taqdim qilindi. O'tgan yil yakuniga ko'ra, elektron portal doirasida viloyatdagi hududiy sanoat korxonalar tomonidan mahsulot sotish bo'yicha umumiy qiymati 640,2 milliard so'mlik 4060 ta shartnoma rasmiylashtirildi. Shuningdek, viloyatlarda o'tkazilgan hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkalarida sooperacion.uz elektron savdo platformasi orqali 426 ta hamkorlik aloqi yo'lga qo'yildi.

Ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish jarayonini jadallashtirish, quvvatlardan to'liq va samarali foydalanish orqali import o'rini bosuvchi mahsulotlar tayyorlashni o'zlashtirish hamda sanoatda kooperatsiya aloqalarining kengaytirilayotgani istiqbolli loyihalarni hayotga tatbiq etish imkoniyatini bermoqda.

Farg'ona viloyatida kelgusi yetti yilda bu yo'nalishda 231 ta istiqbolli loyiha amalga oshiriladi. Buning hisobiga shu kunga qadar import qilinmayotgan va talab yuqori bo'lgan 81 turdagi yangi mahsulot o'zlashtirish asnosida 1070 nafar yangi ish o'rini va 70 million dollarga teng qo'shimcha eksportni amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



iyaviy jozibadorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan yangi loyihalar ham ko'payib bormoqda. 2017-yilda 46 ta loyiha doirasida 475,8 milliard so'mlik investitsiya o'zlashtirilgan bo'lsa, 2022-yilda 1121 ta loyihaga 5,9 trillion so'm yo'naltirildi.

Qo'qon shahrida "Life Import" MCHJ tomonidan ishga tushirilgan loyiha doirasida 6,6 million dona shpris va tibbiy infuzion sistemalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Farg'ona shahrida ish boshlagan "To Produce And Sell Construction Materials" MCHJ qo'shma korxonasi tomonidan 4,1 milliard so'mlik melamin qog'ozlari ishlab


Bugunga kelib, mahalliy lashtirilgan mahsulotlarning viloyat sanoatidagi ulushi 4,3 foiz, yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi esa 2,3 foizni tashkil qildi. Sanoat kooperatsiya aloqalarini yanada kengaytirish maqsadida mahalliy lashtirish dasturiga kiritilgan 24 ta loyihada umumiy qiymati 209,2 milliard so'mlik xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun kerakli butlovchi qism va materiallar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Farg'ona shahridagi "Oil Filter Technologies" MCHJ QK tomonidan sanoat filtrlari, "Shturval" MCHJda yirik sanoat korxonalarida qo'llaniladigan aktivlashtirilgan ko'mir, seolit, sillikagel, "Qo'qon" EIZda joylashtirilgan "Imkon Plast Sez" MCHJda plastmassa






“O‘ZBEKISTON, ERTANGNI ISHON MENGA!”



Boshlanishi 1-betda

Shahrizoda Qo'ziyeva Urganch davlat universitetida o'zbek filologiyasi yo'nalishida tahsil oladi. Adabiyotga qiziqishi bo'lakcha. Hali o'qish va yozishni bil-magan vaqtlaridayoq Erkin Vohidovning "Nido" dostonini yod olgan. Hozir ham sira tinib-tinchimaydi, hali qarasang, ilmiy izlanishlarga sho'ng'iydi, xorijda maqolalar chop ettiradi, yana bir qarasang, turli tanlovlarda ishtirok etadi. 30 dan ortiq ilmiy-ommabop maqola muallifi, hikoyalari chet el nashrlari, xususan, AQSHning mashhur "Amazon" platformasida chop etilgan. Bugungi kunda u Misr, Pokiston, Argentina davlatlarining nufuzli tashkilotlari a'zosi, Portugaliyaning inson huquqlari bo'yicha tashkiloti volontyori. 2022–2023-yillarda Alisher Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sohibasi. Yaqinda "Moziydan ziyoga qadar" deb nomlangan uchinchi mualliflik kitobi chop etildi.



Yozuvchilikka da'vom yo'q, ammo...

Ochig'i, 23 yoshli qizning shuncha yutuqlarga erishgani meni ham bir oz hayratlantirdi. Ammo u bilan suhbatlashgach, Shahrizoda kabi yoshlarga yurtimizda taqdim etilgan keng imkoniyatlar, barcha yo'nalishlarda yaratilayotgan sharoitlar katta kuch, rag'bat berayotganiga yana bir bor amin bo'ldim. Yaqin yillarda ham o'zbek yoshlarining xorijda bitta maqola chop ettirishi ming mashaqqat edi. Endi esa ular xalqaro tashkilotlar a'zolariga aylanyapti.

Niyat qildingmi, aniq maqsad qo'yish, u tomon dadil harakat qilishni ham bilish kerak ekan, — deydi Shahrizoda Qo'ziyeva. — Shundaygina ular birin-ketin amalga oshib boradi. Bolaligidan "Bir kuni olim bo'laman. Meni shunday

bilim sohibi deb e'tirof etishadi", deya orzu qilardim. Ota-onam ham so'zlarimga bee'tibor bo'lmadi, meni qo'llab-quvvatlab, ko'p o'qisang, albatta, kelajakda ilm-fan rivojiga o'z hissangni qo'shib, katta olim bo'lasan, deyishardi. 2021-yilda MDH davlatlari orasida eng yosh olimlardan biri sifatida e'tirof etilganimni eshitganimda, ko'z yoshlarimni tiyib turolmadim. Xushxabarni birinchi ota-onam, ustozlarimga yetkazganman.

Olimlik faxr bo'lishi barobarida, katta mashaqqat ekanini ham yaxshi bilaman. Hozir filologiya yo'nalishida tahsil olayman va doim izlanishdaman. Chunki filolog har sohada ilg'or bo'lmog'i kerak. Filolog bu jurnalist, psixolog, pedagog, tarbiyachi, shifokordir. Chunki so'z ishlatilmaydigan, so'zning qudrati his qilinmaydigan o'rin yo'q, nazarimda. Va tom ma'noda, filolog — yozuvchi hamdir. So'z sehri ularga tinchlik bermaydi.

Aslida, yozuvchilikka da'vom yo'q, lekin yozmasdan ham turolmayman.

Shahrizoda tez-tez hikoyalari yozib turadi. Ilk hikoyasini esa oliy o'quv yurtiga kirgan yillari qoralay boshlagan.

— Usmon Nosirning "Ilhomning vaqti yo'q, selday keladi", degan so'zlari bor. Menda ham shunday bo'ldi chog'i, — deydi Shahrizoda. — Ochig'i, men yozuvchiman, deya qo'lga qalam olmayman. Shunchaki, yozilajak hikoyam ko'z oldimda gavdalanadi: manzarasi-dan tortib, so'zlarigacha. So'ng ularni qog'ozga tushiram.

Barcha yoshdagilarga mos loyiha

Shahrizoda badiiy va ilmiy adabiyotlarni ko'p o'qiydi. Bir tomondan, filolog bo'lgani uchun, boshqa tomondan esa adabiyotga mehri sabab. Adabiy tanqidchilardan Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Qozoqbo'y Yo'ldoshev asarlarini sevib mutolaa qiladi. Shu yo'nalishga qiziqishi ham bor va o'zini sinab ko'ra boshlagan. Hatto ilk bor Ozod Sharafiddinovning "Ijodni anglash baxti" asarini qo'lga olganida, ich-ichidan "Men Xorazmning Ozod Sharafiddinovi bo'laman!", deb maqsad qilgan. Hozirgi kunda esa "Shukur Xolmirzayev nasrida obrazlar tahlili" mavzusida ilmiy tadqiqot olib borayapti. Qahramonimizning "Moziydan ziyoga qadar" deb nomlangan loyihasi uning filologiya va adabiyot yo'nalishidagi izlanishlari mahsulidan biri.

Filologiyani adabiyotdan ayro tasavvur qilib bo'lmaydi, ayniqsa, men uchun bu imkansiz, — deydi Shahrizoda. — Shunday ekan, milliy adabiyotimiz rivojiga hissa qo'shishni kasbiy burchim, deb bilaman. O'zim asos solgan "Moziydan ziyoga qadar" deb nomlangan loyihaning maqsadi ham shundan iborat. Bu loyiha kasbi, yo-shi, mansabidan qat'i nazar, adabiyotga qiziqadigan har bir insonni qamrab oladi. Gap shundaki, loyiha platforma shaklida ishlab chiqilgan bo'lib, undan adabiyot, kino, xalq sevgan qo'shiqlar, kasblar



“Imkoniyatlar sabab bugun biz har sohada dadil qadam tashlayapmiz. Hech kimdan hayiqmay, hech kimga bosh egmay o'z maqsadlarimiz tomon intilyapmiz. Zero, “O‘zbekiston, ertangni ishon menga!” deya yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shishga bel bog‘laganmiz.

bo'yicha savollar joy olgan. Ishtirokchilar taqdim etiladigan bitta savolning bir nechta javobini ketma-ketlikda topishi kerak bo'ladi. Bu loyiha adabiyotimiz bilan bog'liq esdan chiqqan ma'lumotlarni yodga solish barobarida, xotirani mustahkamlab borishga ko'maklashadi. Ahamiyatli, savollar ilmiy, murakkab terminlar bilan emas, balki sodda tarzda tuzilgan.

Shundan so'ng 100 adib hayoti va ijodidan savollar tuzib, bir joyga jamladim, u Xorazm yoshlari nashriyatida "Moziydan ziyoga qadar" nomi ostida chop etildi. Kitobni viloyatimizdagi maktablarga tarqatdik. Endilikda bolalarning adabiyotga qiziqishini yanada oshirish maqsadida ustozlari tomonidan darslar mobaynida bu kabi savollar davomli berib boriladi. Bu

bolajonlarni yanada teran va chuqur fikrlashiga, zukko bo'lib ulg'ayishiga xizmat qilishiga ishonaman.

Ishonchning javobi ishonch bo'lsin!

Shahrizodaning faoliyati ilmiy maqolalari orqali xorijda ham tanilib bormoqda. Qahramonimiz bugungi qulay sharoitlar davrida o'zbek yoshlarining chet davlatlarda ham o'z o'rni, so'zi bo'lishi kerakligini aytadi.

— To'g'ri, dunyo maydoniga chiqish, unda o'rin egallash, ilmiy ishlarni taqdim etish oson emas, — deydi yosh filolog. — Bu til bilish, ko'p o'qib-izlanishni talab etadi. Ammo hozirgi o'zbek yoshlari buni bemaol uddalayapti. Bir nechta tilda so'zlashib, bir vaqtning o'zida qator xorijiy oliy o'quv yurtlari talabasiga aylanayotgan yigit-qizlar, nufuzli xalqaro tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan yoshlarimiz juda ko'p. Xorijliklar ham iqtidor va salohiyatimiz, imkoniyatimizni tan olib, bizni hamkorlikka chorlayapti, birga ishlashga taklif etyapti.

Yurtimizda oldiga maqsad qo'yib harakat qilayotgan yigit-qiz borki, ularga barcha eshiklar ochib berilyapti. Bularni o'z ko'zim bilan ko'rganimda, yoshlarini eng yuksak maqom ila e'zozlayotgan yurt farzandi ekanimdan faxrlanaman. O'zingiz aytay, har bir yigit-qizni qo'llab-quvvatlab, ularning iqtidor va salohiyatini ro'yoga chiqarish uchun bor imkoniyatlar ishga solingan Vatan yana qayerda bor? Biz emasmi, ham kitob o'qib ma'naviyatimizni yuksaltirgan, ham mashina sohibi bo'lgan?

Mana shu qo'llov, imkoniyatlar sabab bugun biz har sohada dadil qadam tashlayapmiz. Hech kimdan hayiqmay, hech kimga bosh egmay o'z maqsadlarimiz tomon intilyapmiz. Zero, "O'zbekiston, ertangni ishon menga!" deya yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo'shishga bel bog'laganmiz.

Iroda TOSHMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

TA'LIM



SAODAT YO'LI — ILM-MA'RIFATDA

“Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktabdir”



Vahobjon RAJABOV, Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining mustaqil tadqiqotchisi

Ma'rifatparvar alloma Mahmudxo'ja Behbudiy haq. Binobarin, yurt ravnaqi va taraqqiyot odimlarini ta'lim-tarbiya belgilaydi. Bu borada muvaffaqiyatga erishish asosi esa yoshlar hayoti va kamoliga, ularni har jihatdan yetuk, ilm-ma'rifatli, yuksak tafakkur va ma'naviyat egalari sifatida ulg'aytirishda.

Shuning uchun ham mamlakatimizda ta'lim-tarbiyaga, ertangi kunimiz egalari-intellektual salohiyat sohiblari bo'lib kamol topishiga yuksak darajada e'tibor qaratilmoqda.

Yosh avlod kamolini ko'zlab sohada olib borilayotgan islohotlar, yangilanishlarning amaliy ro'yobi, samarasi esa barchamizning ko'z o'ngimiza yaqqol namoyon. Davlat dasturlari asosida mamlakatimizning barcha hududlarida yangidan ko'rkam va muhtasham maktablar bunyod etilayotgani, mavjudlari kapital rekonstruksiya chiqarilib, ularda taraqqiyot asri talablariga hamohang qulaylik va shart-sharoitlar yaratilayotgani, ma'rifat maskanlarining moddiy-texnik bazasi yildan-yilga mustahkamlanib, takomillashib borilayotgani zaminida farzandlarimizning ertangi kunga munosib, zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan o'g'il-qizlar bo'lib ulg'ayishi maqsadi mujassam.

Kelajagimiz egalari maktabdan ona tili va chet tillarni puxta o'zlashtirishiga erishish yo'lidagi sa'y-harakatlar, kompyuterda ish-lashga e'tibor qaratilayotgani, farzandlarimizning kamida

2 ta xorijiy til va 1 ta zamonaviy kasb-hunarni o'rganib ulg'ayishi ilgari surilayotgani shuning ifodasi. Bu maqsadlar ro'yobida o'qituvchining bilim-tafakkuri, malaka va mahorati, yuksak ma'naviyati, insoniy fazilatlari g'oyat muhim va dolzarb ahamiyatga ega. Binobarin, shiddat bilan rivojlanayotgan yangi davr muallimi zamonaviy fikrlaydigan, yuksak bilim va ilg'or pedagogik texnologiyalarni mukammal egallagan bo'lishi, ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvlar asosida innovatsion usullarni muvaffaqiyat bilan qo'llay olishi zarur va shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi



tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni soha ravnaqiga oid muhim mezonlarga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Islohotlarning izchil va mantiqiy davomi bo'lgan mazkur farmonda maktabgacha va maktab ta'limining bugungi odimlari, ertangi ravnaqi, aynan o'qituvchi-murabbiylar, ustoz-muallimlarning kasbiy bilim va tajribasi, malaka va mahoratini oshirib borish kabi ustuvor vazifalar, muhim chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

Yangi o'quv yulidan boshlab bosqich-ma-bosqich umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1-4-sinflarida o'quvchilarga

boshlang'ich, 5-9-sinflarida tayanch hamda 10-11-sinf o'quvchilarining qiziqishi va qobiliyatiga mos bo'lgan bilimlarni berishga yo'naltirilgan o'quv dasturlari va o'quv-metodik majmualar joriy etiladi.

Yuqori sinf o'quvchilarining qiziqishiga qarab tanlov fanlari joriy etilishi shu sinflarda dars beradigan o'qituvchilarga ham ancha qulayliklar olib keladi. Aytaylik, o'quvchi o'zi qiziqib ma'lum bir fanni tanladimi, demak, o'qituvchining ham bilim berish imkoniyati va ko'lami yanada kengayadi.

O'qituvchilarning faqat nazariy bilim berishiga chek qo'yilib, barcha fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushi 60 foizga yetka-



zilishi va dars mavzulari aniq muammoni hal qilish orqali o'rgatilishi asosiy mezon qilib belgilandi.

Shu o'rinda farmonda pedagog kadrlarning kasbiy bilim va ko'nikmasini oshirish va baholash, maqomi hamda obro'sini mustahkamlash, ularning moddiy va ma'naviy rag'batlantirilishi, shuningdek, ijtimoiy muhofaza qilinishini tashkil etish kabi eng qamrovli chora-tadbirlar belgilanganini alohida ta'kidlash joiz.

O'qituvchining bilim-qobiliyati, intellektual salohiyati, izlanish va tashabbuslari ta'limda sifat va samaradorlikni belgilaydi va bu o'quvchining umumta'lim fanlarini chuqur egallashi, iqtidori, iste'dodi yuzaga chiqishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham farmonda maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash masalasiga, ularning malaka va mahorati bilan bog'liq muhim jihatlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Farmonda qayd etilganidek, 2023-2024-o'quv yilidan boshlab pedagog kasblarga birinchi marta ishga qabul qilinadigan oliy ma'lumotli talabgorlar stajyor-o'qituvchi sifatida faoliyat yuritadi va ular ishga qabul qilin-gan vaqtdan boshlab bir yil muddat davomida kasbiy sertifikatga ega bo'lishi talab etiladi.

O'qituvchining bilim va salohiyati ortishi, o'z ustida muntazam ishlashi, malaka va mahorat bobida toblanib borishi esa shiddatkor davr, mislsiz darajada rivojlanib borayotgan taraqqiyot asrining muhim mezon, asosiy sharti.

Ayni paytda mamlakatimizda ta'lim muassasalaridagi pedagog-xodimlar soni 515 943 nafarni tashkil etadi.

E'tiborlisi, ustoz-muallimlar faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, ular orasida izlanuvchan, o'z kasbi va fanini mukammal biladigan, hamisha yangi tashabbuslarga intiluvchilar ko'pligi va ular safi tobora ortayotganini alohida ta'kidlash joiz. Yurtimizdagi maktabgacha va maktab ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan ustoz-muallimlar, murabbiylarning 285 063 nafari malaka (oliy, birinchi, ikkinchi) toifasiga ega, ularning 20 436 nafari xorijiy tillar bo'yicha turli darajadagi sertifikatlarga ega. "El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan 42 fanli pedagog turli rivojlangan xorijiy davlatlarda malaka oshirib qaytgani, bu boradagi tashabbuslar davom etayotgani ta'lim va xalqaro hamkorlik yanada ravnaq topayotganini ko'rsatadi.

Ayni paytda Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti, viloyatlarda ham shunday institutlar soha xodimlarining bilim va tajribasini oshirgan holda zamon bilan hamqadam, hamnafas ishlashi, izlanishi, ta'lim jarayoniga yondashishi yo'lida faoliyat olib bormoqda.

Barcha ezgu maqsadlar ro'yobiga bilim va tarbiya tufayli erishilar ekan, bunda ertangi kun yaratuvchisi, kelajak bunyodkori bo'lgan soha xodimlari zimmasidagi mas'uliyat katta. Zahmati og'ir, mashaqqatli ukan, ayni paytda sharafl yuksak bo'lgan kasb egalari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishda, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, kamoli yo'lida yangidan yangi tashabbuslarga ruhlanishda ushbu me'yoriy hujjatning dolzarb va muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Ma'naviy TARG'IBOT KERAK

yoxud qilich ko'tarilgan joyda qalqon ham ishga tushadi



MULOHAZA



Shahlo AHROROVA,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti katta ilmiy xodimi

Nishonda – ong va qalb

Bugungi globallashuv davrida mafkura-lar kurashining avj olgani, endi insonning jismi emas, balki uning ongi va qalbi mo'ljalga aylangan hech kimga sir bo'lmay qoldi. Ong va qalb uchun kurash avj olayotgan ekan, ma'naviyat va ma'rifat institutlari kurashchi sifatida oldinga chiqadi, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot dolzarb ahamiyat kasb etib boradi. Ya'ni aholi, ayniqsa, farzandlarimizning ongu shuurini begona g'oyalarga, maqsadlar mo'ljalga olgan ekan, biz bu obyektni oldinroq egallashimiz, ular oldida kuchli ma'naviy-ma'rifiy qalqon yaratishimiz, ularni begona illatlar uchun emas, aksincha, o'z yurti ravnaqi uchun safarbar etishimiz lozim bo'ladi.

Shu o'rinda ma'naviyat va ma'rifat so'zlariga e'tibor qilaylik. Nima uchun bular qo'shib aytiladi?

Ma'naviyat – arabcha "ma'ni" ma'nosini ifodalaydi. Ma'rifatning esa o'zagi "maorif" so'zi bo'lib, "o'qiyman, bilaman" degan ma'nolarni anglatadi. Bu so'zlarni birgalikda qo'llashdan maqsad – insoniy fazilatlar va bilim doim yonma-yon bo'lishini anglatish hamda ularni ezgu maqsadga yo'naltirishga undash.

Ma'naviy targ'ibot ma'lum bir hudud yoki ma'lum bir guruhda jamlangan odamlar ongiga ma'naviy tushuncha va tamoyillarni singdirish, ularning ma'naviy qi-yofasini boyitishga qaratilgan tizimli va maqsadli ma'rifiy faoliyatni ifodalaydigan jarayon. Ikkinchi tomondan, odamlarni yoki ularning ma'lum bir qatlamini ma'naviy tajovuzlardan oqohlikka chaqirish maqsadida mavjud tahdidlar va ularning mohiyati to'g'risida tushuncha va fikr shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga, ularda yuk-sak ma'naviy g'oyalarni shakllantirishga qaratilgan nazariy va amaliy harakatlarni anglatadi.

Odamlar ongida yurtni jipslashtirishga ko'maklashadigan insoniy tuyg'ular qaror topishi, jamiyatda olijanob fazilatlar ustuvor bo'lishida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot muhim ahamiyat kasb etadi. Aslida, bunday targ'ibot ta'limning ham, tarbiyaning ham muhim ko'rinishidir.

"Targ'ibot" atamasining o'zagini "rag'bat" so'zi tashkil etadi va insonni biror harakatga rag'batlantirishni nazarda tutadi. "Tashviqot" tushunchasining o'zagi esa "shavq" so'zidan olingan bo'lib, kishida biror narsaga shavq, ishonch tuyg'ularini uyg'otishga yo'naltirilgan. Demak, targ'ibot-tashviqotdan ko'zlangan asosiy maqsad – nafaqat bilim orttirish, balki kishini biror-bir xatti-harakatga undashdan iborat.

Ma'ruza o'qisangiz... dalillar qo'lingizda bo'lsin

Kishilar qalbiga yangicha tafakkur, yangi g'oyalarni singdirish uzoq, ba'zida yillab davom etadigan jarayon. Shunchaki ma'ruza o'qib, bilim bergan bilan yoki qay-sidir qonun hujjatlarini joriy qilgan bilan jamiyatda yangicha tafakkur yoki yangicha yondashuvni shakllantirib bo'lmaydi. Buning uchun kuchli targ'ibot va tashviqot ish-lari zarur. Targ'ibot esa shunday qudratli, Abdulla Oripov she'rida aytilganidek:

Temur tig'i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher.

Har qanday holatda ham targ'ibotning o'qi – g'oya, nishoni – inson ongi va shuuri bo'lib qoladi. Lekin qurolni turli-tu-man bo'lishi mumkin. Belgilangan g'oya, maqsad, uning ahamiyati, obyektning ko'lami, xususiyati kabi omillar hisobga olingan holda, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot usullari, yo'nalishlari tanlab olinadi.

XIX asrning saksoninchi yillarida boshlangan jadidlar harakatini eslab ko'raylik. Ismoilbek Gaspirinskiy Qrimda shu harakatning asoschisi hisoblan-sa, Mahmudxo'ja Behbudiyani O'rta Osiyoda dastlab yetakchilik qilgan olim sifatida ko'rsak bo'ladi. Gap shundaki, jadidlar aholining dunyoqarashi va bilimi zamon talabidan qolayotgani, ularning ongi va qarashlarini o'zgartirmay turib, jamiyatni rivojlantirib bo'lmagani anglab yetgandi. Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xuroftodan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish. Ular shu yo'lda dastlabki qadamlarni bosdi va ma'rifiy targ'ibot uchun bir qator yo'nalishlarni belgilab oldi.

Jumladan, yangi usul maktablari ochish, qobiliyatli yoshlarni chet elda o'qitib, bilimi, tajribasini oshirish va ularni o'z jamiyatimiz uchun xizmat qildirish, ma'rifiy jamiyatlar tuzish orqali faoliyatlarini aniq tartib va yo'nalishlarga solish, faoliyatni qonuniylashtirish, madaniy taraqqiyotni rivojlantirish maqsadida teatr truppalari ochish va ulardan targ'ibot vositasi sifatida foydalanish, gazeta va jumallar chop etish orqali xabardorlik va ilm darajasini oshirish, demokratiya respublika tuzish uchun uning asoslarini yaratish.

Ular bu yo'nalishlarni mavjud vaziyat va ehtiyojni hisobga olgan holda belgilagan. Targ'ibot-tashviqot ishlari hamisha oson va silliq ketavermagan, qarshiliklar bo'lgan. Xususan, o'sha davrda yangi maktablar ochishga, Ovro'pa xalqlariga

ni o'ylaylik. Chunki bu jamiyatda ma'lum darajada ma'naviy muhit darajasini namoyon etadigan ko'rsatkich hisoblanadi.

Biz agar inson jinoyat sodir etmasa, u oilada va jamiyatda qanday o'rinni topishi, hurmat qozonishini kimlarningdir misolida tushuntirishga urg'u beramiz. Jinoyat kam sodir etilgan mamlakatlarga dunyoning munosabatini ham ko'rsatamiz va misol keltiramiz. Bu birinchi usul.

Ikkinchisida esa jinoyatning kelib chiqish sabablari, jinoyat sodir etgan odamning jamiyatdagi o'rini, jinoyatchilik rivojlangan mamlakatlarga dunyoning munosabatini qayd etamiz. Ikkinchi holat insonni oqohlikka undaydi. Chunki psixologik jihatdan

va amaliy izlanishlarni ham, harakatlarni ham bir daqiqqa bo'lsin to'xtatib bo'lmaydi.

Dastlab qora-sariq ranglar namoyish etiladi, keyin...

Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot samaradorligini ta'minlashda, avvalo, auditoriya to'g'ri tanlanishi kerak. Gohida butun jamoani to'plash shart emas, manzilli yondashuvning o'zi kifoya qiladi. Mavzuning mazmuniga qarab, aholining ma'lum bir qatlam yoki kasb-kor egalari tanlab olin-sa, natija samarali bo'ladi.

G'oyaning aniq yo'naltirilgani va mavzu hajmining ma'lum bir vaqtga ajratib olingani ham muhim omil sanaladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, g'oyalarni targ'ibot uchun gohida yillar talab etiladi. Qolaversa, targ'ibotning bilim va g'oya bilan qurollanganlik darajasi hamda ishontirish qobiliyati katta ahamiyatga ega.

Odatda targ'ibot natijasi ham tezda ko'rinmasligi mumkin, bunday tezkorlikni kutish g'oyani ham, uning targ'ibotini ham obro'sizlantirib qo'yadi.

Barkamol farzand sog'lom oilaviy muhitda voyaga yetadi. Bunga erishish uchun, birinchi navbatda, ma'naviy targ'ibot-tashviqot ishlarini ota-onalar ongiga, ularning farzandlariga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga yo'naltirish zarur. Demak, targ'ibot-tashviqot ishlari ham xuddi ma'naviy tarbiya singari uzluksizlik kasb etishi lozim. Biz unga yetkazgan ma'lumot, g'oya tomdan tarasha tushganday bo'lmagisi kerak. Mana shu o'rinda sho'rolar hukumatining targ'ibot usullarini eslab ko'raylik. Ochig'i, bu usullarga mensimasdan qarash noto'g'ri. Chunki bu usullar yillar davomida pishib shakllangan. Aytaylik, dastavval qaysidir uyali aloqa kompaniyasining qora-sariq ranglari namoyish etila boshlandi. Avvaliga

siz bu rangli chiziqlar nimani anglatishini bilmadingiz, lekin ular shuiningga singib bo'ldi. Shundan so'ngina endi bu xususiyatlar yonida kompaniya nomi yozulib ham paydo bo'ladi.

Demak, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotda ketma-ketlik, ya'ni takrorlanmay, davomiylik kasb etirish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy targ'ibotni amalga oshirishda turli vositalardan foydalaniladi. Masalan, mavjud ta'lim tizimi bu borada eng asosiy vositalardan biridir. Chunki bu tizim orqali qamrovni keng olish imkoniyati mavjud. Bu ta'lim-tarbiya asosida olib boriladi. Ta'lim usullari, vositalari ham targ'ibotga xizmat qildiriladi.

Ma'lumki, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, axborot jamiyatni mafkura bilan qurollantirishda, dunyoqarashni shakllantirishda, tasavvur va bilimlarni to'ldirishda yetakchi usulga aylana bordi. Bugunga kelib, axborot almashinuvi va tarqatilishi shu qadar tezlik kasb etdiki, go'yo ular ongingning bo'sh joyini birinchi bo'lib egallash bo'yicha musobaqalashayotganday ko'rinadi. Ular obyekt qamrovini kengaytirish uchun har qanday usul va joziba yo'laridan foydalanishga harakat qiladi.

Hissiyot, o'y, fikr uyg'unligi

Badiiy adabiyot va san'at ahli inson tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatish orqali targ'ibotni amalga oshiradi. Adabiyot va san'at inson tug'ilibidiki, u bilan birga, inson dastavval bularga ko'ngil ochish vositasi sifatida qaragan bo'lsa, endi qahramonlarga taqdim qiladi, ularning ortidan ergashadi. Adabiy asar, filmlar, qo'shiqlar, ijtimoiy roliklarga singdirilgan g'oya, harakatlarni, kiyinish uslublarida ham aks etish orqali muxlis, tomoshabin yoki o'quvchini ortidan



oid kiyinishga mahalliy mullalar mutlaqo qarshi chiqqan.

Bugungi kunda turli oqimga xizmat qiladigan mafkuralar xurujii targ'ibot-tashviqot ishlarini murakkablashtiradi. Bunday holatda mafkuraga qarshi mafkura, asoslar va faktlar bilan qurollanish muhim ahamiyat kasb etadi. Aytaylik, jadidlar ham yangilikka qarshi bo'lganlarning tarafdorlariga javobni asosan dinimizdan olgan. Jumladan, ilmi Chingga borib bo'lsa ham o'rganing, degan hadisi sharifdan foydalanilgan. Demak, targ'ibot qilayotgan g'oyaning asoslovchi dalillari hamisha qo'limizda bo'lishi kerak.

Maqto'v bo'shashtiradi, vahima esa...

Targ'ibotning ikki an'anaviy yo'li mavjud. Birinchisi – insoniy fazilatlarini ulug'lash, shu sohada yutuqqa erishgan insonlarni ibrat qilib ko'rsatish. Ikkinchi yo'li esa illatlarni qoralash, ulardan xalos bo'lishga chaqirish, bu boradagi halokati natijalarni misol qilish orqali amalga oshadi. Ikkinchi vosita birinchisiga nisbatan ta'sirchanroq. Masalan, jinoyatning oldini olish masalasi-

qaraganda ham sokinlik, maqto'v kabi narsalar inson ruhiyatini yumshatadi. Insonda taajjub, vahima uyg'otadigan xabar, gaplar esa uning ruhiyatini sergak holda ushlaydi.

Albatta, ikkala usulni uyg'unlashtirish kerak, degan savol tug'ilishi tabiiy. Targ'ibotda aslida har ikkisidan ham foydalaniladi. Har ikkisinin o'z o'rini va ta'sir darajasi bor.

Bugun jamiyatni ma'naviy yangilash masalasi qo'yilmoqda. Zero, iqtisodiyotda yoki texnologiya sohasida har qancha yutuqqa erishmaylik, el-yurt farovonligi, tinchligi, Vatani va jamiyat ravnaqi yetakchi g'oyasiga aylangan, har qanday yot g'oya va mafkuraviy xurujlarga qarshi turadigan xalqqa o'z yurtini har tarafлама taraqqiy ettirib, jahon sahnida nafaqat munosib o'rinni oladi, balki yetakchilar qatoridan joy egallaydi.

Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot usullari, shakllari, vositalari esa xuddi qurollanish poygasini singari yil sayin turlicha ahamiyat kasb etib borayotganini unutilib bo'lmaydi. Bugungi uslubimiz, vositamiz ertaga es-kitib qoladi, ma'naviy xurujlar biznikidan kuchliroq vosita va shakllarda kirib kela boshlaydi. Shuning uchun bu borada ilmiy



"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"
gazetalarini tahririyati" DUK

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
**O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-646.

41011 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Kog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bekqul Egamqulov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manziliimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

O'za yakuni — 00:25 Topshirildi — 00:30